

## DOIRA – IJROCHILIK SAN’ATI VA RIVOJLANISH AN’ANALARI

Nazarov Sherzod Dilshod o’g’li

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI “Vokal va cholg‘u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash” kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa sozlaridan biri bo‘lgan doira milliy sozining ijrochilik turlari, taraqqiyoti, shakllanishi, tuzilishi, shuningdek, o‘zbek milliy musiqa san’atidagi rivojlanish bosqichlari, ustozlarning ijro yo‘li, oddiy usullardan murakkab usullarga o‘tilish jarayonlari, ustozlar ijod etgan va ular yaratgan musiqa asarlarining avlodlardan -avlodlarga o‘tib kelayotgani va bugungi kunda doira san’atiga bo‘lgan ehtiyojlar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek milliy sozlari, doira, zarbli asboblar, sozanda, duff, daff, usul, ijro, zili bom, xalq terma usullari, ijod etilgan usullar, mumtoz usullar, murakkab usullar, nog‘ora, repertuar.

O‘zbek musiqa san’ati ijrochiligida doira usullarining juda ko‘plab turlari shakllangan va asrlar osha ularning yangi- yangi namunalari yaratilib, rivojlanib kelgan. Doira zarblari musiqada muayyan ma’noga ega bo‘lgan metro ritmik majmua shaklida yaratilgan bo‘lib, “usul”, ya’ni doira usullari deb yuritiladi. Ularni o‘zlashtirish jarayonida esa oddiy, murakkab va aralash usullar turlariga ajratib o‘rganish odat tusiga kirgan. Oddiy usullar - ko‘proq xalq og‘zaki ijodi ya’ni folklor musiqasida uchrasa, aralash usullarning orasida ham turli turkumdagi usullar uchraydi.

O‘zbek doirachilik maktabi XX asrning 20 -30 yillaridan boshlab, yangi davr rivojiga yuz tutganligi ijrochilik amaliyotida o‘zini namoyon etgan. Bunga zamonasining mohir san’atkori Usta Olim Komilov bosh bo‘ldi va asos soldi. Darhaqiqat, doira sozi haqida so‘z borganda, ko‘z o‘ngimizda “afsonaviy sozanda” nomi bilan mashhur bo‘lgan Usta Olim Komilov namoyon bo‘ladi. Hassos sozanda Usta Olim o‘zbek doirachilik san’ati maktabi darg‘alaridan edi. Davr taqozosi bilan sozanda o‘zbek usullarini doira cholg‘usida ijro etishni rivojlantirish hamda uni jo‘rnavor cholg‘udan yakkanavoz darajasigacha ko‘tara oldi. Aynan shu davrdagi doira ijrochiligining jonlanishi nafaqat uning ijroviy rivojlanishiga, balki ijodiy kamolotini ham yangitdan boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. O‘sha davrda doira ijrochilari uchun ijodiy muhit paydo bo‘ldi. Aytish joizki, 70 -80 yillar orasida o‘zbek doira ijrochiligida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Buni biz doiraning shakli shamoyilidagi o‘zgarishida emas, balki usullar jilvalarida va amaliyotida ham ko‘rishimiz mumkin. Avvalgi “**zili bom**” doiradan, har qanday zarblarni ohanrabodek tarannum yetadigan doira soziga aylandi[1]. Doira sozining nafaqat xalq musiqasini namoyish etish va ko‘tarishda, balki uni jahon xalqlari musiqasi darajasiga olib chiqishda ham katta mehnat talab qilindi. Bu borada Usta Olim Komilov juda katta ijodiy mehnat va izlanish olib borganini e’tirof etmay iloj yo‘q. U yaratgan usullar sozandaning butun ijodiy faoliyati davomida olib borgan izlanishlari zaminida shakllangan. Ular eng avvalo xalq ijodiyotidan olingan. Olingan usullar qayta ishlanib yangi yangi ko‘rinishda xalqqa taqdim etilgan. Qayta ishlangan usullarni Usta Olim Komilov “**xalq terma usullari**” deb nomlagan. Xalq terma usullarining murakkab ko‘rinishlari, Farg‘ona vodiysida azaldan rasm bo‘lgan “chaqiriq” marosimlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Xalq usullarini ramziy ma’noda uch qismga bo‘lish mumkin:

1. Asl xalq hayoti bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan va milliy qadriyatlar bilan sug‘orilgan haqiqiy usullar;
2. Mumtoz usullar;
3. Ijod etilgan usullar.

Asl xalq usullari deb, har bir xalqning o'z milliy an'analaridan kelib chiqqan hola yuzaga kelgan usullarga aytiladi. Ya'ni bizning "yor yor" usulimiz, "nog'ora bayot" kabilar. Mumtoz usullar turkumiga kiradigan usullar murakkab hamda mukammal usullarni tashkil etadi[2]. Maqom san'atida qo'llaniladigan usullarning barchasi muayyan g'oyalarga tayangan usullar, o'zining tarkibiy jihatidan mukammal bo'lgan usullar mumtoz usullar deb yuritiladi. Ijod etilgan usullar deb ramziy nomlangan usullar xalq ijodkorlari tomonidan yaratilgan. Bunday usullar eng oddiy ko'rinishdan mukammal darajadagi usullar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Chunki ijod bu har bir ijodkorning iste'dodidan, ham aqliy faoliyatidan vujudga keladi.

Oddiy xalq usullarining turlanishi asosan, raqs san'ati bilan bog'liqdir. Sozandaning doira usullarini yig'ish, takomillashtirish va yangi yangi namunalarini topib, amaliyotda qo'llashi natijasida usullarning majmuasi bunyodga kelgan. Bu usullar xalq ijrochilik amaliyotida alohida usullar sifatida musiqa amaliyotida qo'llanib kelingan. Va bugungi kungacha avloddan avlodga o'tib, rivojlanib kelmoqda. Usta Olim Komilov o'z ijodiy faoliyatida quyidagi natijalarga erishgan: Birinchidan, u xalq musiqa murosida mavjud bo'lgan usullarni o'zlashtirgan[3]. Xalq musiqa merosida cholg'u musiqasi, ashula yo'llari, o'yin ya'ni raqs usullari, chaqiriq usullari, to'y marosim usullari bilan boshqa rang barang usullarning o'ziga xos ritmik tizimlarini o'z ichiga olgan. Sozanda esa bu jihatlarga katta e'tibor qaratgan. Natijada xoreografiya san'atining milliy yo'nalishi ehtiyojlarini nazarga olgan holda, davr raqs san'ati usullari yuzaga keldi. Bular ijrochilik amaliyotida doir raqs usullarining kichik (mikro) turkumchalari deb yuritib kelinmoqda.

Sozandaning buyuk xizmati shundaki, asrlar davomida shakllangan doira san'atini ulug' ustozlar yaratgan ulug' merosni – anvoyi usullarni, yig'ib-terib jamladi, tartibga keltirdi, yangi usullar ijod etib, boyitdi va bu noyob xazinani shogirdlariga tutqazdi, ko'ngliga jo qildi. Ustoz bu xizmati bilan ko'plab usullarni unutilib, yo'qolib ketishdan asrab qoldi. Usta Olim doiraning har bir zarbini yurak yurakdan his etib chalgan, uni aqlan va qalban anglagan noyob iste'dod egasi edi.

Sozanda to'plagan xazinaning asosiy qismi u 1928 yil Tamaraxonim bilan birga yaratgan "Doira darsi" degan uslubiy qo'llanmaga jo bo'lgan. U "Gul o'yini", "Paxta", "Pilla", "Shohida" kabi yangi raqslar ijod etdi. Shuningdek, "Gulandom", "Oq bilak", "Balerina" singari birinchi o'zbek milliy baletlari, "Farhod va Shirin", "Gulsara" musiqali dramalari, "Bo'ron", "Buyuk kanal" operalari ham Usta Olim ishtirokida yaralgan[4].

Aytish joizki Usta Olim yaratgan maktab o'zbek musiqa doirachilik san'ati an'anaviylik va davomiylilik ta'sirida keng quloqchilik yoydi. Birin-ketin uning o'nlab shogirdlari yetishib chiqdi. Taniqli doirachilar To'yehi Inog'omov, Rahim Isoxo'jaev, G'afur Azimov, G'afur Solihov, Dadaxo'ja Sottixo'jaev, Ubay Xo'jaev, G'afur Inog'omov, Jalil Mirxoliqov, Bolta Sharipovlar Usta Olimning sadoqatli shogirdlari, o'zbek doirachilik san'atiga munosib hissa qo'shgan san'atkorlardir[5]. Keyinchalik bu avlod safini yangi avlod to'ldirdi va doirachilik an'analarini davom ettirdi.

Xulosa qilib aytganda doira faqatgina usul ushlab bilan cheklanmasligi kerak. Uning har bir sadosi, tovushi, jarangi, bum-bakida ma'no ifodasi bo'lishi lozim. Butun ansamblda ijro etilayotgan sozlarning yetakchisi, u adashsa boshqa sozlar ham adashishi hech gapmas. Boshqa sozlar kuydan, notadan adashsa, doira sozi ularni bir maromga keltira olishi kerak. Buning uchun sozanda o'ta zakiy, qobiliyatli va shu bilan birga o'zi chalayotgan har bir kuyni yurakdan his etib ijro qila bilishi lozimdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Lutfullo Mahmud. "Dilmurodning dilkash davralari" T., "Istiqlol", 2000.

2. Mahmud Sattorov. Doira sehri. T., “Sharq”, 2002.
3. T.Ashrafxo‘jaev. “Doira”. T., 2003.
4. R.Samadov. “An’anaviy doira ijrochiligi”. T., 2004.
5. I.Ikromov, A.Lutfullaev. “Doira”. T., “Musiqqa”. 2012.
6. R.Samadov, “Zarblar xazinasi”. “Musiqqa” nashriyoti, Toshkent 2012 yil.